

O'SPIRIN YOSHDAGI O'QUVCHILARDA INGLIZ TILI LUG'AT BOYLLIGINI SAMARALI METODIKALAR ORQALI OSHIRISH VA AMALIY YO'LLAR ORQALI ULARNI QO'LLASH

*Samandarova Ozoda Turaboy qizi
Ajiniyoz nomidagi NDPI, Ingliz tili va
adabiyoti kafedrası, I kurs talabasi*

Soʻz boyligi — bu oʻrganayotgan tilimizga oid soʻzlarni yodda saqlab, kerakli paytda toʻgʻri ishlata olish qobiliyatidir. Bugungi globallashtirish davrida har bir inson kamida bitta xorijiy tilni bilishi zarur. Ayniqsa, ingliz tiliga boʻlgan ehtiyoj kundan kunga ortib bormoqda. Chunki koʻplab yangi texnologiyalar, ilm-fan, internet va xalqaro aloqalar aynan ingliz tilida olib boriladi. Shu sababli, ingliz tilini oʻrganishga boʻlgan qiziqish ayniqsa yoshlar orasida sezilarli darajada oshmoqda. Oʻspirinlar bu tilni tezroq oʻzlashtirishga harakat qilmoqda. Ammo, ingliz tiliga aloqasi boʻlmagan sohalarni tanlagan oʻquvchilar bu yoʻlda biroz qiyinchiliklarga duch kelishmoqda, xususan yangi soʻzlarni yodlab qolish masalasida.

Tilshunoslar fikriga koʻra, yangi soʻzlarni oʻzlashtirishda faqat takrorlash yetarli emas, balki ular bilan amaliy ishlash ham muhimdir (Nation, 2001). Shu sababli zamonaviy oʻquvchilarga qulay, interaktiv va ijodiy yondashuvlarni tanlash zarur. Quyida oʻquvchilar uchun **qiziqarli, samarali va ilmiy asoslangan metodlar** keltirilgan.

1. Hafta kunlariga asoslangan yodlash usuli

Bu metodning mohiyati — har kuni yangi soʻzlarni yodlab, avvalgi kun soʻzlarini takrorlashga asoslanadi. Masalan:

- Dushanba — 10 ta yangi soʻz oʻrganiladi;
 - Seshanba — avvalgi kun soʻzlari takrorlanadi va ustiga yana 10 ta qoʻshiladi;
 - Yakshanba — butun hafta davomida oʻrganilgan soʻzlar soʻrov orqali mustahkamlanadi.
- Bunday takroriy yondashuv Harmer (2007) tomonidan ham qoʻllab-quvvatlanadi. U til oʻrganishda muntazamlik va tizimli takrorlashning samaradorligini taʼkidlaydi.

2. “Pomidoro” usuli

Pomidoro texnikasi qisqa muddatli diqqat markazini taʼminlab, soʻzlarni oson eslab qolishga yordam beradi. Bu metod asosan dars qilish yoki ishlash jarayonida qoʻllaniladi, ammo yangi soʻzlarni yodlashda ham juda samarali. Ular oʻsimliklarni aniqlash va tasniflashda, shuningdek, madaniyat, tarix va geografiya bilan bogʻliq koʻplab jihatlarni oʻrganishda yordam beradi [1]. Usul quyidagicha:

- 10 daqiqa davomida yangi soʻzlarni oʻrganish;
- 5 daqiqa tanaffus qilish;
- Shu tarzda bir necha marotaba takrorlash.

Schmitt (2000) til oʻrganishda qisqa va faol mashgʻulotlar orqali soʻzlarni tezroq yod olish mumkinligini urgʻulaydi.

3. Mavzuga oid soʻzlarni guruhlab oʻrganish

Soʻzlarni mavzular asosida guruhlash — yod olishni osonlashtiradi va bogʻliqlik yaratadi. Masalan, "Animals" mavzusi doirasida quyidagi soʻzlar oʻrganiladi: **lion, snake, tiger, monkey** va hokazo.

Thornbury (2002) fikricha, tematik yondashuv til oʻrganuvchilarga semantik bogʻlanishlar orqali soʻzlarni mustahkamlab olish imkonini beradi.

4. Hikoya orqali yodlash

Bu usulda oʻquvchilarga hayotiy va kundalik mavzulardagi hikoyalar beriladi. Hikoyadagi yangi soʻzlar oʻrganiladi va ularning tarjimalari koʻrib chiqiladi. Misol uchun, **“My school day”** mavzusida quyidagi hikoya tuziladi:

“I wake up at 6 am. I wash my face and hands, then I get dressed and eat breakfast...”

Oxford (1990) oʻz asarida til oʻrganuvchilar uchun kontekstda (matnda) soʻzlarni oʻrganish ularning uzun muddatli xotirasini yaxshilashini taʼkidlaydi.

5. Soʻzlardan mustaqil gap tuzish

Bu metodda o'quvchilar yangi o'rgangan so'zlar bilan gaplar tuzib, ularni og'zaki yoki yozma tarzda ifodalaydi. Masalan, **"My friend"** mavzusida:

"My friend is kind. He likes to play football. He is funny and smart."

Nation (2001) bu kabi faol foydalanishga asoslangan mashg'ulotlarni til o'rganishdagi eng kuchli texnikalardan biri sifatida qayd etadi, chunki o'rgangan so'z amalda mustahkamlanadi.

Xulosa Til o'rganish jarayonida eng muhim omillardan biri bu — **xohish va mas'uliyat**dir. O'quvchi qancha ko'p yangi so'z yodlasa, o'zini shuncha rivojlantiradi. Chunki **"Til bilgan — el biladi"** degan naql bejiz aytilmagan. So'z boyligini oshirish orqali o'quvchilar ingliz tilini **o'qish, yozish, tushunish va gapirish** bo'yicha tezroq va samaraliroq o'zlashtirishadi. Ular uchun mos, qiziqarli va samarali metodlardan foydalangan holda qisqa vaqt ichida katta natijalarga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Barlikbayevna D. N. ETYMOLOGY AND FUNCTIONS OF PHYTONYMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2025. – T. 3. – №. 29. – C. 48-50.
2. Karimov, M. (2020). *Chet tillarni o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.
3. G'ulomov, A., & Hasanov, S. (2018). *Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
4. Thornbury, S. (2002). *How to Teach Vocabulary*. Harlow: Longman.
5. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching* (4th ed.). London: Pearson Education.
6. Schmitt, N. (2000). *Vocabulary in Language Teaching*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Boston: Heinle & Heinle.
9. Buzan, T. (2010). *The Memory Book: How to Remember Anything You Want*. London: BBC Active.